


## Farg'ona viloyatining CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-mart dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2769,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,1 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 325,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 127,2%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2196,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 246,8 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 %ga o'sgan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**



2019 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Farg'ona, Quvasoy va Qo'qon shaharlarida, shuningdek, Yozovon, Uchko'prik va Bag'dod tumanlarida qayd etildi.


### Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o`ngan yilning mos davriga nisbatan 127,2 %ga o`tdi va 325,5 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,8 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 2196,7 mlrd. so`mni tashkil etib, 2019 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,9 %ga o`tdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,2 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



■ Kichik tadbirkorlik  
■ Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa t (99,8%), Sox' t (99,1%), Uchko'prik (98,8) Furqat t (98,5 %) Beshariq t (98,5%) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko`rinib turibdi.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,8% ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg`ona ( 26,3%), Qo`qon (14,5%), shaxarlari va Bag'dod tumani (20,0%) da kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	325,5	127,2	2196,7	102,3
<b><i>shaharlar</i></b>				
Farg'ona	193,3	1,4M	499,8	94,7
Qo`qon	59,6	102,5	309,3	107,9
Quvasoy	1,8	119,5	53,9	103,7
Marg'ilon	12,5	62,5	179,4	112,7
<b><i>tumanlar</i></b>				
Oltiariq	3,2	98,3	84,6	104,8
Qo`shtepa	0,3	2,1 M	120,7	104,4
Bag`dod	19,9	3,6M	74,1	101,6
Buvayda	1,7	100,8	87,3	104,9
Beshariq	1,5	81,4	87,3	104,9
Quva	10,1	5,0M	116,7	103,0
Uchko`prik	1,3	110,1	93,2	106,1
Rishton	4,2	53,0	72,2	108,3
So`x	0,3	191,5	36,1	103,8
Toshloq	5,4	106,5	63,5	106,0
O`zbekiston	2,1	97,5	72,1	103,5
Farg'ona t	2,5	34,6	79,5	99,8
Dang`ara	1,7	104,4	51,9	102,1
Furqat	0,7	108,9	41,3	94,7
Yozyovon	2,5	84,8	66,3	106,7

### Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyati chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 488,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-mart oyida o'tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Farg'ona (2619,5 ming.so'm), Qo'qon (1666,8 ming. so'm) va Marg'ilon (903,8 ming.so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'zbekiston t (356,3 ming.so'm), Dang'ara t (373,8 ming.so'm) va Toshloq t (377,8 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	758,3	103,4
<b><i>shaharlar</i></b>		
Farg'ona	2619,5	103,3
Qo'qon	1666,8	107,5
Quvasoy	690,2	103,9
Marg'ilon	903,8	106,1
<b><i>tumanlar</i></b>		
Oltiariq	472,2	102,1
Qo'shtepa	709,9	101,3
Bag'dod	341,2	107,2
Buvayda	450,3	102,3
Beshariq	465,5	102,8
Quva	541,3	101,6
Uchko'prik	483,0	104,7
Rishton	454,3	100,1
So'x	547,7	100,8
Toshloq	377,2	100,1
O'zbekiston	356,3	100,7
Farg'ona t	485,7	100,2
Dang'ara	373,8	100,8
Furqat	438,1	100,6
Yozyovon	747,2	104,3

Jumladan, 2019 yilning yanvar-mart oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,5 % ni tashkil etib, 41,2 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 97,2 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


## FARG'ONA VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-mart)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 851,7 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 9,8 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra 635,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,7 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 74,6 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg'ilon shahar (100,0%), Quvasoy shahar (100,0%), Qo'shtepa t (100,0%), Furqat t (100,0%), Beshariq t (100,0%) va Quva t (100,0%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

### Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



■ Yirik korxonadlar  
■ Kichik korxonalar


Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 25,4 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati So'x (10,1%), Bog'dod (23,7%) tumanlari va Farg'ona (67,3%) shahrida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>851,7</b>	<b>109,8</b>	<b>216,3</b>	<b>132,8</b>	<b>635,3</b>	<b>103,7</b>
<b>shaharlar</b>						
Farg'ona	494,9	86,9	200,8	139,9	294,1	69,0
Qo'qon	150,5	1,7 m	11,15	107,5	139,3	1,8m
Quvasoy	8,3	6,3 m	0,00	-	8,3	6,3 m
Marg'ilon	56,9	1,8m	0,04	12,2	56,9	1,8m
<b>tumanlar</b>						
Oltiariq	27,7	3,1m	0,08	82,4	27,6	3,1m
Qo'shtepa	0,2	100,0	0,00	-	0,2	100,0
Bag'dod	16,4	54,0	2,95	42,3	13,5	57,4
Buvayda	16,9	6,8 m	0,00	-	16,9	6,8 m
Beshariq	0,9	9,3m	0,00	-	0,9p	9,3m
Quva	6,4	5,6	0,00	-	6,4	5,6 m
Uchko'prik	13,7	3,4 m	0,32	107,3	13,3	3,6m
Rishton	5,5	130,5	0,1	62,1	5,4	133,6
So'x	0,4	45,4	0,03	24,4	0,3	48,7
Toshloq	26,2	1,1 m	0,56	110,3	56,1	2,5 m
O'zbekiston	6,4	5,4 m	0,03	11,1	6,4	6,3 m
Farg'ona t	4,3	1,3	0,08	39,2	4,2	1,3 m
Dang'ara	5,5	61,8	0,10	87,5	5,4	61,4
Furqat	2,6	7,3 m	0,00	-	2,6	7,3 m
Yozyovon	8,0	3,4 m	0,10	1,2 m	7,9	3,5 m



**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur`ati Farg'ona shahar(86,9%) va So'x t (45,4%), Dang'ara t/(61,8%), Bag'dod (54,0%) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo`limi

Tel.:71-230-87-18